

SIYOSIY VAZIYAT TUSHUNCHASI, MOHIYATI VA TASNIFI

Iqtisodiyot fakulteti 3-kurs talabasi
Qo‘chqorov Saidahmadxo‘ja Maxmud o‘g‘li

Annotatsiya: Ushbu maqolada siyosiy elita qatlamning tarixi, barcha davrlarda mavjud bo‘lib, qanday shaklda namoyon bo‘lgani, shakllanish bosqichi, xususiyatlari va funksiyalari bayot etilgan bo‘lib, bir qator olimlarning elita qatlami haqidagi qarashlari bilan to‘ldirilgan. Elitaning o‘ziga xos ahamiyati va jamiyat bilan o‘zaro munosabati tahlil qilinib, jamiyat uchun qanchalik ahamiyatli ekani va qay tariqa ta’sir etishi aniq-ravshan ko‘rsatilgan.

Kalit so‘zlar: Siyosiy elita, jamiyat, funksiya, davlat hokimiyati, subyekt, burjuaziya, proletariat, ijtimoiy institutlar, bazis, siyosiy sinf, demokratiya, oligarxiya, guruhlar.

Abstract: This article describes the history of the political elite, its existence in all periods, the form in which it has manifested itself, the stages of formation, its characteristics and functions, and is supplemented by the views of a number of scholars on the elite. The specific importance of the elite and its interaction with society are analyzed, and how it is significant for society and how it affects it are clearly shown.

Key words: Political elite, society, function, state power, subject, bourgeoisie, proletariat, social institutions, base, political class, democracy, oligarchy, groups.

Аннотация: В данной статье описана история слоя политической элиты, его существование во все периоды, как он проявлялся, этапы формирования, особенности и функции, а также наполнены взглядами ряда ученых на элитный слой. Анализируется специфическое значение элиты и ее взаимодействия с обществом, наглядно показано, насколько она важна для общества и как влияет на него.

Ключевые слова: Политическая элита, общество, функция, государственная власть, субъект, буржуазия, пролетариат, социальные институты, база, политический класс, демократия, олигархия, группы.

Kirish

Siyosat - o‘z mohiyatiga ko‘ra doimo yangilanib boruvchi, jamiyat va davlat rivojlanishining so‘nggi yangiliklarini o‘zida aks ettiruvchi mohiyatga ega. Shu bois siyosiy atamalaming yagona universal modelini shakllantirish murakkab. Siyosatshunoslik o‘z predmeti doirasida jamiyat siyosiy hayotidagi o‘zgarishlarni ilmiy asoslashga intiladi. Bu esa siyosatshunoslik fani va uning dolzarbligini ko‘rsatadi. Aytish mumkinki, jamiyat taraqqiyotida siyosiy bilimlar o‘ziga xos o‘ringa

ega bo‘lib, bu asosda davlat va jamiyat qurilishi hamda boshqaruvini to‘g‘ri tashkil etish mumkin. Bugungi kunda siyosiy bilimlarning keng rivojlanishi, siyosiy jarayonlar va siyosiy institutlar borasida yangicha qarashlarni shakllantirmoqda. Natijada davlat boshqaruvini modernizatsiyalash, keng ko‘lamli islohotlarni amalga oshirish ehtiyoji tug‘ilmoqda. Xususan, O‘zbekiston mustaqilligining ilk kunlaridan boshlab, suveren demokratik davlat barpo etish yo‘lidan bormoqda. Dastlab, O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimov tomonidan ishlab chiqilgan taraqqiyotning “o‘zbek modeli”. mamlakatimizda amalga oshirilgan demokratik islohotlarning asosini tashkil etdi. Bugungi kunda ham O‘zbekistondagi modernizatsiya jarayoni davom etmoqda. 2017-yil 7-fevralda O‘zbekiston Prezidenti Sh .M.Mirziyoyev tashabbusi bilan 2017-2021 -yillarda O‘zbekistonni yanada rivojlantirishga qaratilgan besh ustuvor yo‘nalishdan iborat “Harakatlar strategiyasi” e‘lon qilindi. Mazkur ustuvor yo‘nalishlar bevosita davlat va jamiyat boshqaruvini isloh etish, sud-huquq tizimini rivojlantirish, iqtisodiyotni liberallashtirish, ijtimoiy sohadagi faoliyatni kuchaytirish, xavfsizlik va tashqi siyosatni samarali yuritishga oid masalalarni qamrab olgan. Bundan tashqari, O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2017-yil 8-sentabrda “O‘zbekiston Respublikasida Ma‘muriy islohotlar konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” gi farmoni e‘lon qilindi va unda davlat boshqaruvi tizimini tubdan isloh qilishning 6 ta asosiy yo‘nalishi belgilab berildi. Bu esa mamlakatimizda siyosiy bilimlarning rivoji uchun ham muhim ahamiyatga egadir. Hozirda jahondagi ilmiy markazlarda kundan-kunga yangi siyosiy konsepsiyalar, nazariyalar ilgari surilmoqda va siyosatshunoslikning zamonaviy masalalarni qamrab olgan mavzular bilan boyib bormoqda. Shu bois mamlakatimizda ham mazkur sohadagi ishlarni yangi bosqichga olib chiqish asosiy masalalardan hisoblanadi.

Asosiy qisim

«Siyosat» tushunchasi - qadimiy tushunchalardan biri. Hozirgi tillarga va madaniyatga «siyosat» atamasi qadimgi yunon tilidan o‘zlashtirilgan so‘z (politika) sifatida kirgan. U davlat bilan hukmronlik munosabatlarini, odamlar va jamiyat ustidan rahbarlik qilish ilmi bilan bog‘liq qadimgi yunon tushunchalariga asoslanadi: «polis» (shahar-davlat), «politikos» (davlat arbobi), «politeyya» (konstitutsiya). Siyosat (yunoncha politika) davlat va ijtimoiy ishlar, odamlar, ijtimoiy guruhlar, sinflar, partiyalar, millatlar va davlatlar o‘rtasidagi hukumatli munosabatlar bilan bog‘langan faoliyat sohasidir. “Siyosat”-yunoncha “politeia” (yoki “politeyya”) so‘zining tarjimasidir. Bu so‘z yunon tilida polis (shahar-davlat) rejimi deb atalib, u butun bir hamjamiyatni uyushtirishning ajralib turadigan belgisi, rahbarlikning tashkil etish yo‘li mazmunini anglatadigan tushuncha. Ba’zi manbalarda boshqacha fikrlar keltirilgan, «siyosat»-yunoncha «polis», «politicos» so‘zlarining tarjimai bo‘lib, u davlatni boshqarish san’ati, «davlat ishlari» degan ma’nolarni anglatadi. «Siyosat» iborasi amaliyotda Arastuning «Siyosat» risolasi chop etilgandan keyin keng foydalanishga

kiritilgan. Arastu aytadiki: «Siyosat har bir fuqaroga eng yaxshi hayot tarzini ta'minlab beradigan boshqaruv uslubidir». Qadimgi yunon faylasufi Demokratning fikricha, «siyosat davlatni idora etish, boshqarish mahoratidir». Aflotun siyosatni hukmdorlarning san'ati sifatida, ya'ni shohning odamlami (jamiyatni) boshqarish sohasidagi bilimi va qobiliyati sifatida ta'riflaydi. «Siyosat san'atining mohiyati,- deydi u,- davlatning umumiy hayotini oqilona tashkil etish va olib borish qobiliyatida, siyosiy «matoni» to'qish qobiliyatida namoyon bo'ladi». «Siyosat» tushunchasini aniqlashtirish, uni mazmun-mohiyatini ochib berish va tadqiq etish uzoq davrlar mobaynida monarxiya, respublika va davlatning boshqa shakllarini tadqiq etish, jamiyat va davlatni bir-biridan ajratish (N.Makiavelli), cherkov institutlari (xristianlik an'analari) va fuqarolik jamiyati (J.Lokk), davlatni iqtisodiy va ijtimoiy tuzum bilan o'zaro aloqadorligini aniqlashga doir (A.Smit) ilmiy izlanishlar jarayonida o'z takomiliga yetdi. «Siyosat» tom ma'noda odamlarning ijtimoiy hayotini tashkil etishga doir ehtiyojlarini aks ettiradi va jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotining in'ikosi, hosilasi hisoblanadi. Uning asosiy vazifasi ijtimoiy hayotning turli sohalarini yo'naltirish, turli kuch manfaatlarini muvozanatini topish va ta'minlash orqali jamiyat yaxlitligini, jipsligini ta'minlash, taraqqiyotning ilg'or strategiyasini ishlab chiqish va hayotga tatbiq etishdir. Siyosat bevosita hokimiyat, boshqarmv sohasiga daxldor bo'lib, davlat vajamoat ishlarini, odamlar, ijtimoiy guruhlar, xalqlar, millatlar, davlatlar o'rtasidagi munosabatlar bilan bog'liq faoliyat sohasini anglatadi. U siyosiy institutlar va tashkilotlarning faoliyat ko'rsatishini, siyosiy me'yorlar va an'analami, odamlarning hokimiyat-boshqaruv va tashkilotchilik faoliyatini, ijtimoiy-siyosiy manfaatlar va ehtiyojlarini, siyosiy g'oyalari va qarashlarini o'z ichiga oladi. Siyosat san'at sifatida odamlami faollashtirish vositalarini voqelikka mos tarzda tanlay olishda namoyon bo'ladi. Mohir siyosatchi odamlami murakkab vazifalarni hal etishga qo'zg'atishi mumkin bo'lgan paytni to'g'ri belgilay oladi. Uning muvaffaqiyati, faollikka faqat birgina ma'muriyatchilik bilan emas, balki odamlar uchun qulay sharoitlar yaratish, doimiy va oqilona talabchanlik bilan erishishga ham bog'liq. Rahbarning mahorati inson xulq-atvorining barcha murakkab jihatlarini farqlay olishdan iboratdir.

Biroq bugungi kunda demokratik boshqaruv tobora keng yoyilib borayotgan sharoitda «siyosat» tushunchasining asosiy negizlarini quyidagilar tashkil etishini ko'rsatib o'tish mumkin:

- demokratiya;
- insonga yo'naltirilganlik, jinoyatchilikka barham berish;
- ma'naviyat;
- o'z vataniga fuqarolik muhabbati;
- siyosatning muayyan tarixiy sharoitlardan kelib chiqishi, boshqa fanlardan ham foydalanilgan holda belgilanishi; siyosat millatlar, ijtimoiy guruhlar, davlatlar o'rtasidagi ularning ehtiyojlari va manfaatlarini amalga oshirishga oid munosabatlar

sifatida qaralishi; siyosatning davlat ishlarida ishtirok etish, davlat faoliyatining shakllari, vazifalari va mazmunini belgilashi;

- siyosat-millionlab kishilarning taqdiri, uning inson manfaatlariga yo‘naltirilishi demakdir.

Siyosatning asosiy «harakat qiluvchi shaxslari» uning subyektlari bo‘lib, ular siyosiy faollik manbai sifatida maydonga chiqadilar. «Subyekt» va «obyekt» tushunchalari (lotincha subjectum-ega, objectum-predmet) gumanitar bilimning muhim kategoriyalaridandir. Siyosat subyekti-amaliy siyosiy faoliyat sohibidir. Siyosat subyektlariga individlar (oddiy shaxslar yoki siyosiy liderlar); ijtimoiy guruhlar-jamoalar, etnik guruhlar, diniy jamoalar, siyosiy elita, sinflar, omma, fuqarolik jamiyati, xalqlar, millatlar, tamaddunlar; siyosiy institutlar (davlat, siyosiy partiyalar) kiradi. Siyosat obyekti- subyektning bilish va boshqa faoliyati nimaga qaratilgan bo‘lsa, ana shuni anglatadi. Siyosat o‘ziga xos tuzilishga ega bo‘lib, uning tarkibiy qismlariga quydagilar kiradi:

1) Siyosiy munosabatlar. U jamiyatdagi ijtimoiy guruhlar va hokimiyat institutlari o‘rtasidagi o‘zaro aloqalarning barqarorligi xarakterini ifodalaydi.

2) Siyosiy ong. U kishilarning hokimiyat ahamiyatiga molik bo‘lgan manfaatlarini anglab yetgan holatidagi munosabatlarini siyosiy hayot bilan uzviy bog‘liqligini ifodalaydi.

Shuningdek quyidagilarni ham siyosatning tarkibiy qismi sifatida keltirish mumkin: siyosiy qarashlar, g‘oyalar, nazariyalar, dasturlar, qadriyatli yo‘nalishlar, ko‘rsatmalar, andozalar va boshqalar, odatlar va qadriyatlar, xulq-atvor namunalari, jamoatchilik fikri, o‘ziga xos siyosiy til, odamlar psixologiyasi, davlat, partiya, guruhlar manfaatlari va harakatlar, qonunlar, inson huquqlari va boshqa huquqiy normalar, siyosiy yetakchilik munosabatlari, elita, guruhlar va hokazolalar hisoblanadi.

Xulosa

Siyosiy vaziyat jamiyatning muayyan davrdagi siyosiy jarayonlari, siyosiy kuchlar o‘rtasidagi munosabatlar, hokimiyat institutlarining faoliyati hamda ijtimoiy-siyosiy muvozanatning umumiy holatini ifodalaydi. Uning mazmuni davlat boshqaruvi, siyosiy tizim barqarorligi, aholining siyosiy faolligi va siyosiy qarorlar samaradorligi kabi omillar bilan belgilanadi. Siyosiy vaziyatni chuqur tahlil qilish davlatning strategik rivojlanishiga, siyosiy barqarorlikni mustahkamlashga va xavf-xatarlarni oldindan bashorat qilishga imkon beradi. Siyosiy vaziyatning tasnifi esa siyosiy barqarorlik darajasi, siyosiy kuchlar nisbati, ichki va tashqi omillar ta’siri, ijtimoiy-iqtisodiy sharoit kabi mezonlar asosida amalga oshiriladi. Bu tasnif siyosiy jarayonlarni tizimli tahlil qilish, siyosiy boshqaruvni optimallashtirish va strategik qarorlar qabul qilishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Umuman olganda, siyosiy vaziyatni to‘g‘ri baholash va tasniflash davlatning

siyosiy rivojlanishida hal qiluvchi o‘rin tutadi. Bu jarayon siyosiy barqarorlikni ta‘minlash, konfliktlarning oldini olish, fuqarolik jamiyatini rivojlantirish hamda davlat va jamiyat o‘rtasida konstruktiv hamkorlikni kuchaytirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Основы политической науки. Учебное пособие. Под.ред. В.П. Пугачева. Част I. -Москва: МГУ, 1996. -С.163-
2. Siyosatshunoslik: oliy o‘quv yurtlari talabalari uchun o‘quv qo‘llanma / M.Qirg‘izboyev; Andijon davlat universiteti. -Toshkent: Yangi asr avlodi, 2013. - 280 b.
3. Siyosatshunoslik: oliy o‘quv yurtlari talabalari uchun o‘quv qo‘llanma / M.Qirg‘izboyev; Andijon davlat universiteti. -Toshkent: Yangi asr avlodi, 2013. - 280 b.
4. Моска Г. Правящий класс // Соқис. 1994, № 10. С.187-188
5. Парето В. Компендиум по общей социологии // Антология мировой политической мысли: В 5 т. –М.: 1997. Т. II. –С. 59-67.
6. Biturayev O‘. B. Siyosatshunoslikka kirish (o‘quv qo‘llanma) Toshkent: “Barkamol fayz media”, 2017. -167 b
7. Siyosatshunoslik: Oliy ta‘lim muassasalari talabalari uchun darslik/ Odilqoriyev X.T., Razzoqov D.X. -(To‘ldirilgan va qayta ishlangan nashr). – T.: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2009. - 189 b